

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**OMONOV ZAFARJON RAXMONALIYEVICH**

**QIYNASHNING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;**

**12.00.15 –Kriminologiya (yuridik fanlar)**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Omonov Zafarjon Raxmonaliyevich**

Qiyinashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar..... 5

**Омонов Зафаржон Рахмоналиевич**

Уголовно-правовые и криминологические аспекты истязания..... 24

**Omonov Zafarjon Rakhmonalievich**

Criminal-legal and criminological aspects of torture..... 47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 51

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**OMONOV ZAFARJON RAXMONALIYEVICH**

**QIYNASHNING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHLTLARI**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;  
12.00.15 –Kriminologiya (yuridik fanlar)**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Yu457 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz/uz/nauka/deyatelnost-nauchnogo-soveta>) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Zakirova Adina Gulyamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Turgunboyev Elbekjon Odiljonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 15-noyabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1471-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 2-noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 2-noyabr kunidagi 9-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.S. Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh.A. Kulmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo mamlakatlarida shaxsning sog'lig'ini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish, xususan shaxsni muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynashga qarshi kurashish, bu turdagi jinoyatlarning oldini olish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 2 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarning deyarli to'rt dan uch qismi (taxminan 300 million bola) tarbiyachilari yoki ota-onalari tomonidan jismoniy jazolanadi yoki ruhiy zo'rlikka uchraydi, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida yillik o'lim ko'rsatkichi 40150 tani tashkil etadi, ularning aksariyati zo'ravonlik tufayli ro'y beradi. Xususan, 2023-yilda Rossiya Federatsiyasida 649 ta, Qirg'iz Respublikasida 2023-yilning 10 oyida 81 ta qiynash jinoyati ro'yxatga olingan. Shunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni, unga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish, ularning oldini olish choralarini takomillashtirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahonda qiynash uchun jinoiy javobgarlik belgilash, muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynashning sabablarini va unga imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish, shaxsning jismoniy va ruhiy daxlsizligiga oid huquqlarini ta'minlash, qiynashni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va uning uchun javobgarlikni takomillashtirish, muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynashga oid xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasini kuchaytirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda inson huquqlarini himoya qilish sohasida ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yil 2-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"<sup>1</sup>gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>2</sup>gi Qarori qabul qilindi. 2020-yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>3</sup>gi farmoni qabul qilinishi mazkur yo'nalishda qo'yilgan muhim qadam bo'lishiga qaramasdan, 2019-yilda 14 ta jinoyat ishi bo'yicha 24 nafar shaxsga nisbatan, 2020-yilda 21 ta jinoyat ishi bo'yicha 26 nafar shaxsga nisbatan, 2021-yilda 30 ta jinoyat ishi bo'yicha 33 nafar shaxsga nisbatan, 2022-yilda 42 ta jinoyat ishi bo'yicha 60 nafar shaxsga nisbatan, 2023-yilda 46 ta ish bo'yicha 65 nafar shaxsga nisbatan sudning ayblov hukmi chiqarilgani<sup>4</sup> mazkur jinoyatlarning dinamikasi o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Ayni damda qiynashning latentlik darajasi juda yuqori bo'lib, jinoyatga oid statistik ma'lumotlar haqiqiy holatni aks ettira olmayotganligi, vaziyatni yanada chigallashtirayotganligi bois ushbu mavzuni tadqiq etish zarurati mavjuddir.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/acts/4494709>.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/4302023>.

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/4872355?ONDATE2=21.04.2022&action=compare>.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 07/14-1866-105-raqamli javob xati (02.02.2023).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018) qarori, “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022) farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jinoyat huquqi fanida qiynash uchun jinoiy javobgarlik, qiynashning kriminologik jihatlari alohida monografik tadqiqot darajasida o‘rganilmagan. Shaxs sog‘lig‘ini jinoyat-huquqiy muhofaza qilish masalasi Q.R.Abdurasulova, L.G.Alimov, R.Kabulov, M.Kadirov, Yu.M.Karakterov, X.A.Karimov, A.X.Muxiddinov, M.X.Rustamboyev, F.Taxirov, Z.S.Zaripov, A.S.Yakubovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda qiynash va inson sog‘lig‘ini muhofaza qilishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari S.N.Abelsev, Yu.M.Antonyan, M.K.Aniyans, V.I.Borisov, Ye.V.Bezruchko, S.V.Borodin, V.G.Veniaminov, L.I.Gurevich, P.A.Matushkin, Yu.A.Krasikov, Yu.S.Pesterova, A.A.Jijilenko, P.Yu.Konstantinov, S.V.Maksimova, A.S.Nikiforov, B.C.Konovalov, L.V.Serdyuk, R.M.Radjabov, N.S.Tagansev, V.I.Tkachenko, N.I.Zagorodnikov, D.A.Shestakov, R.M.Shagvaliyevlarning tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda hozirga qadar qiynashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari maxsus tadqiq etilmaganligi bois, sohaga oid qonunchilik, uni qo‘llash amaliyotini, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligini va xalqaro huquq normalarini o‘rganish, ulardagi ijobiy tajribalarni milliy Jinoyat qonunchiligiga implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Jinoyat qonunchiligi va kriminologiya fanini takomillashtirishning dolzarb masalalari (2022 – 2024)» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** muammoni kompleks va har tomonlama o‘rganish, qiynash uchun jinoiy javobgarlikni differensiyalash va realizatsiya qilish; qiynash uchun javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, qiynashni kvalifikatsiya qilish, uning sabablarini

---

<sup>1</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

aniqlash, oldini olish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qiynashning ijtimoiy xavfliligini aniqlash, jinoyat-huquqiy tushunchasini tahlil qilish;

qiynash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan qonun normalarining rivojlanish tarixini o'rganish;

milliy va xalqaro qonunchilikdagi qiynashga doir normalarni qiyosiy tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 110-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini o'rganish;

qiynash bilan bog'liq jinoiy qilmishlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlash amaliyotini tahlil qilish hamda umumlashtirish;

qiynashni kvalifikatsiya qilishda harakat usuli, maqsadi va oqibatini aniqlash hamda jinoiy jazo choralarini belgilash;

qiynashning boshqa o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlarini tahlil qilish;

qiynashning kriminologik va viktimologik jihatlarini tadqiq etish;

qiynash uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonunchiligi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida qiynash uchun javobgarlik va uning oldini olish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** qiynash uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalar, ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida qiynash uchun javobgarlik belgilangan normalarining qiyosiy tahlili, jinoyatning sabablari, unga imkon bergan shart-sharoitlar va uning oldini olishga oid ilmiy manbaalar, amaliyot materiallari, statistik ma'lumotlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda analiz, sintez, deduksiya, induksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

qiynash dispozitsiyasini "Muttasil ravishda shaxsga nisbatan jismoniy, ruhiy, psixologik zo'rlik ishlatish yoki shaxsni zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud urish-do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash, agar yangi tahrirdagi jinoyat kodeksining 136,137-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmagan bo'lsa", mazmunida shakllantirish lozimligi asoslangan;

qiynashning "ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki boshqa muassasalarda yosh bolaning tarbiyasi, sog'lig'i uchun mas'ul bo'lgan xodim tomonidan" sodir etilishi uchun javobgarlikni og'irlashtirish lozimligi asoslangan;

bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxslar deganda, muayyan xonadon yoki uyda er-xotinlik munosabatlarida yashovchi, umumiy mol-mulk va pul mablag'lariga egalik qiluvchi erkak hamda ayol tushunilishi lozimligi asoslangan;

"Xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni, bolaning yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsning

badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish jinoyati maxsus subyektli jinoyat bo'lganligi uchun jinoyat sodir etishda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (bundan keyingi o'rinlarda JKdeb yuritiladi) 28 va 126<sup>1</sup>-moddalarining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslangan;

Ojiz ahvol deganda, jabrlanuvchining shunday ahvoli tushunilishi kerakki, bunday paytda u o'zining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy holati (jismoniy nuqsoni, ruhiyati buzilganligi, o'n to'rt yoshga to'lmagan (kichik yoshdagi bolalar) yoki keksaligi, qattik og'riq yoki behushlik holati, alkogol, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ta'sirida o'ta mastlik holatiga ko'ra o'zini uzi himoya qilish, aybdorga faol qarshilik ko'rsatish yoki o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlar xususiyati va mohiyatini tushunish yoki o'z harakatlarini boshqarish imkoniyatiga ega bulmaydi. Bunda aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo'lishi shartligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi.** Qiynash uchun javobgarlikni takomillashtirishni nazarda tutuvchi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

qiynash nafaqat ayborning harakatlari balki, harakatsizligi oqibatida ham sodir etilishi mumkinligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi JK 110-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasidagi "*boshqa harakatlar bilan qiynash*" iborasini "*boshqa qilmishlar bilan qiynash*" iborasiga almashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni differensiatsiya qilishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish maqsadida JK 110-moddasi 2-qismini "*ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan*" degan band bilan to'ldirish taklif etilgan;

xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilgan qiynash uchun javobgarlikni differensiatsiya qilish maqsadida JK 110-moddasi 2-qismini xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan, g'arazli yoki boshqa past niyatlarda, milliy, irqiy, etnik, diniy adovat zamirida, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib degan band bilan to'ldirish taklif etilgan;

Aybdorga moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan sodir etilgan qiynash uchun javobgarlikni differensiatsiya qilish maqsadida JK 110-moddasi 2-qismini "moddiy yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram shaxsga nisbatan sodir etilgan" degan band bilan to'ldirish taklif etilgan;

qiynashni sodir etgan shaxslarning ijtimoiy maqomini, kasbi, shug'ullayotgan ishini o'rganish shaxsni to'liqroq tavsiflash, uning hususiyatlarini aniqlash, konfliktlarni zo'rlik ishlatish yo'li bilan hal qilish va jabrlanuvchilarni qiynashga moyil bo'lganlarni aniqlash imkonini berishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan xulosalar 2019-2023 yillarida respublikamiz sudlarida ko'rib chiqilgan qiynash jinoyatiga oid 100 ta jinoyat ishi bo'yicha hukmlar, 450 nafar Andijon, Farg'ona viloyatlari tuman, shahar IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshliqlari va profilaktika (katta) inspektorlari



hamda 73 nafar sudya, 45 nafar ilmiy xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar hamda qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** shu bilan belgilanadiki, unda bildirilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosa va qoidalardan O'zbekiston Respublikasida jinoiy javobgarlikni qo'llashga oid nazariy va amaliy qoidalarni rivojlantirishda, xususan, amaldagi JK 110-moddasining dispozitsiyasi va sanksiyalarini takomillashtirishda, tegishli qonun normalarini sharhlashda, "Jinoyat huquqi" va "Kriminologiya" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, kelgusidagi ilmiy-tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, sodir etilgan qiynashlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda, sudlar tomonidan qiynashni sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli jazo tayinlashda, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida qiynashning oldini olishni takomillashtirishga, qiynash profilaktikasini amalga oshirishda davlat organlarining jamoat tashkilotlari bilan hamkorligini tashkil etishga, qonun normalarining bir xilda qo'llanilishiga, sohaga oid qonun hujjatlari loyihalarining ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qiynashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"Muttasil ravishda shaxsga nisbatan jismoniy, ruhiy, psixologik zo'rlik ishlatish yoki shaxsni zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud urish-do'pposlash yoki boshqacha qilmishlar bilan qiynash, agar Yangi tahrirdagi jinoyat kodeksining 136, 137-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmagan bo'lsa" mazmunidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahriridagi loyihasining 142-moddaning (Qiynash) dispozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasining 2023-yil 6-iyuldagi 27/2-194-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi qiynashning obyektiv tomon belgilarini dispozitsiyada to'liq yoritilishiga xizmat qilgan;

"ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki boshqa muassasalarda yosh bolaning tarbiyasi, sog'lig'i uchun mas'ul bo'lgan xodim tomonidan" sodir etilgan qiynash uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish mazmunidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahriridagi loyihasiga kiritilgan 142-moddaning (qiynash) ikkinchi qismi 1-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasining 2023-yil 6-iyuldagi 27/2-194-23-son dalolatnomasi) Mazkur taklifning inobatga olinishi, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki boshqa muassasalarda yosh bolaning tarbiyasi, sog'lig'i uchun mas'ul bo'lgan xodim tomonidan sodir etilgan qiynash uchun javobgarlik og'irlashtirilishiga xizmat qiladi;

bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxslar deganda, muayyan xonadon yoki uyda er-xotinlik munosabatlarida yashovchi, umumiy mol-mulk va pul mablag'lariga egalik qiluvchi erkak hamda ayol tushunilishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 3<sup>1</sup>-bandini

shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 14-fevraldagi PL-31-22-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxslar tushunchasiga aniq ta’rif berilishiga xizmat qilgan;

xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsning badaniga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish jinoyati maxsus subyektli jinoyat bo‘lganligi uchun jinoyat sodir etishda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlari JKning 28 va 126<sup>1</sup>-moddalarining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 16-bandini 3-xatboshi bilan to‘ldirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 14-fevraldagi PL-31-22-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi oilaviy zo‘ravonlik hamda qiynash, badanga qasddan shikast yetkazish jinoyatlarini o‘zaro farqlashga xizmat qilgan;

ojiz ahvol deganda, jabrlanuvchining shunday ahvoli tushunilishi kerakki, bunday paytda u o‘zining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy holati (jismoniy nuqsoni, ruhiyati buzilganligi, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan (kichik yoshdagi bolalar) yoki keksaligi, qattik og‘riq yoki behushlik holati, alkogol, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ta’sirida o‘ta mastlik holatiga ko‘ra o‘zini uzi himoya qilish, aybdorga faol qarshilik ko‘rsatish yoki o‘ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlar xususiyati va mohiyatini tushunish yoki o‘z harakatlarini boshqarish imkoniyatiga ega bulmaydi. Bunda aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo‘lishi shartligi mazmunidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandini 1-xatboshi bilan to‘ldirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 14-fevraldagi PL-31-22-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi, JKda keltirilgan jabrlanuvchining ojiz ahvoli bo‘yicha atamaning yagona ta’rifini ishlab chiqilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda 9 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta va ilmiy anjumanlarda 5 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lab, hajmi 142 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik

darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti belgilangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Qiydash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining umumiy tavsifi va ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarida qiydash uchun javobgarlikning qiyosiy tahlili”** nomli birinchi bobida qiydashning yuridik tabiati va qiydash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarning ijtimoiy zaruriyati va rivojlanish tarixi, qiydashning tushunchasi, ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida qiydash uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalar qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Muallif qadimgi davrlardan qiydash jazolash, qo'rqitish va aybga iqror qilish vositasi sifatida qo'llanilganligi, xususan, qiydashning turli ko'rinishlari Qadimgi Misr, Ossuriya, Yunoniston va Rim kabi davlatlarda keng tarqalganligi, XVII asrning oxirlarida Yevropa mamlakatlarida qiydashning cheklanganligi va bu Uyg'onish davrining insonparvarlik g'oyalari bilan bog'liq holda ro'y bergan degan xulosalarga kelgan.

Tadqiqotchi qiydash qadimgi davrda, o'rta asrlarda va XXI asrda ham inson va fuqarolarning daxlsizligiga, sog'ligiga zarar yetkazuvchi jinoyat sifatida e'tirof etilganligini inobatga olib, har qanday huquq normasining uzoq vaqt mobaynida mavjud bo'lishi qonun qabul qiluvchi organlarning bunday normalarning ijtimoiy-huquqiy zaruratiga bo'lgan e'tiborini susaytirmasligi lozimligini ta'kidlagan.

Dissertant O'zbekiston Respublikasi hududida qiydash uchun javobgarlik belgilangan qonun hujjatlarining rivojlanish tarixini o'rganishda RSFSRning 1922-yildagi, O'zbekiston SSRning 1926, 1959-yildagi JKlaridagi mazkur jinoyat uchun javobgarlik belgilangan normalarini qiyosiy tahlil qilgan.

Muallif qiydashning o'ziga xosligi, uning latentlik darajasi yuqori bo'lgan jinoyatlardan hisoblanishi, aksariyat hollarda oila-turmush sohasida, yaqin kishilarga nisbatan sodir etilishi bilan bog'lagan. Jinoyat ishlari materialarining tahliliga ko'ra, qiydash 14,8% holatlarda rashk tufayli, 85,2% holatlarda jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib sodir etilgan.

Har qanday qilmishni kriminalizatsiya qilish uchun uning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash joizligi, chunki, aynan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyat-huquqi fanida kriminalizatsiya qilishning asosi hisoblanishi ko'rsatilib, qilmishning ijtimoiy xavfliligi jinoyat huquqida hal qiluvchi omil sifatida baholanishiga qaramasdan, adabiyotlarda “ijtimoiy xavfli”lik tushunchasi haqida yagona fikr mavjud emasligi aytilgan.

Muallif qiydash jarayonida badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilmasada, uning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi boshqa turdagi, ya'ni jismoniy yoki ruhiy azob chekilishi kabi og'ir oqibatlarining kelib chiqishi, qiydashning muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar orqali amalga oshirilishida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Dissertant qiydashning dinamikasini eng kam darajalarga qadar kamaytirish uchun uni jinoyat-huquqiy taqiqlash muhim ahamiyat kasb etishi, ammo uning

samarasi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tarbiyaviy, intizomiy, tashkiliy va boshqa qator choralarning butun bir tizimini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan.

Tadqiqotchi tomonidan qiynashni kriminalizatsiya qilish asoslari quyidagilarda:

1) tajovuz obyekti, aybning shakli, qilmish oqibatlarining og‘irligi va jinoyat sodir etish usulida ifodalanuvchi qiynashning tabiati va yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligi;

2) qiynashning tarqalganlik darajasi;

3) unga qarshi boshqa huquqiy vositalar orqali kurashish imkonining yo‘qligi;

4) jinoiy adliya tizimi imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiynashga qarshi kurashishi mumkinligi;

5) qiynashning Konstitutsiya, amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarga zid ekanligi;

6) qiynashni jinoyat-huquqiy taqiqlashning odob-ahloq qoidalari bilan uyg‘unligida namoyon bo‘lishi asoslangan.

Dissertantning fikricha, qiynash tushunchasi bo‘yicha hozirga qadar yagona nuqtai nazar mavjud emas. Uning murakkabligi tufayli mazkur qilmish turli jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etishi va har xil kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Muallif V.G.Veniaminov, T.R.Yefremova, Yu.A.Krasikov, L.L.Kruglikov, M.H.Rustambayev, N.S.Salayev, F.Toxirov, B.V.Zdravomislov<sup>1</sup>larning qiynashga bergan ta‘riflarini tahlil qilib, *“qiynash deganda shaxsga muttasil ravishda ya‘ni kamida uch marta urish, chimchilash, tishlash, ko‘p miqdorda tirnash, ko‘p marta, ammo hajmi katta bo‘lmagan o‘tmas yoki o‘tkir sanchilgan jarohat yetkazish, termik, kimyoviy va boshqa moddalar bilan ta‘sir o‘tkazish, shuningdek uzoq vaqt ovqat, suv yoki issiqlikdan mahrum qilish kabi xo‘rlovchi harakatlar yoxud insonning sog‘ligiga shikast yetkazuvchi sharoitga solish yoki unda qoldirish va hokazolar tushuniladi”* degan ta‘rifni ishlab chiqqan.

Dissertant ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligining qiynash uchun javobgarlik belgilangan normalarini qiyosiy tahlil qilib, muayyan xulosalarga kelgan. Xususan, MDH davlatlarining jinoyat qonunlarida qiynash uchun alohida normada javobgarlik belgilanganligi, jinoyat-huquqiy normalar turlicha shakllantirilganiga qaramasdan, ularning qiynash muttasil do‘pposlash yoki boshqa zo‘rlik xarakteridagi harakatlarda ifodalanishi, badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilmasligi, jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy (psixik) azoblanishiga sabab bo‘lishi kabi umumiy tomonlari ham mavjudligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotchi JKning qiynash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan 110-moddasi “Qiynash” va qiynoqqa solish uchun javobgarlik belgilangan 235-moddasi “Qiynoqqa solish” deb nomlanganligi, qonunning rus tilidagi tahririda ikki so‘z ya‘ni 110-modda “istyazaniye”, 235-modda esa “пытка” deb nomlanganligini ko‘rsatib, qiynoqqa solish qiynash jinoyatidan o‘zining aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, xususan jinoyat tarkibi elementlariga ko‘ra farq qilishini ta‘kidlab, JK 110-moddasi nomi va 110-modda 1-qismidagi “qiynash” so‘zlarini “Azoblash” so‘zlari bilan almashtirish taklifini ilgari surgan.

---

<sup>1</sup> Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

Muallif qiynash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan ayrim xorijiy mamlakatlar JKlarini o'rganib, ularni uch guruhga ajratgan:

*birinchi guruh* – qiynash uchun JK alohida moddasida javobgarlik belgilangan (Avstriya, Daniya, Tailand, Ispaniya va Fransiya);

*ikkinchi guruh* – JKlarda qiynash oqibatida sog'liqqa shikast yetkazish uchun javobgarlik belgilangan va ushbu JKlarida muayyan jabrlanuvchilarga nisbatan sodir etilgan qiynash maxsus normalar bilan kvalifikatsiya qilinadi (GFR, Shveysariya);

*uchinchi guruh* – qiynash uchun alohida mustaqil moddada javobgarlik belgilanmagan va u sog'liqqa shikast yetkazish sifatida baholangan (Shvetsiya, Yaponiya, Turkiya, Isroil).

Dissertatsiyaning **“Qiynashning yuridik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida qiynashning obyektiv, subyektiv belgilari, shuningdek qilmishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilari, qiynashni kvalifikatsiya qilish va uni o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash muammolari o'rganilgan.

Tadqiqotchi qiynashning obyektini tadqiq qilib quyidagi xulosalarga kelgan:

– qiynash jinoyatining *umumiy obyekti* – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning umumiy yig'indisidan iborat (barcha jinoyatlarning umumiy obyektini xuddi shunday ta'riflash umum e'tirof etilgan);

– JK 110-moddasida javobgarlik belgilangan qiynashning *turdosh obyekti* – mazkur jinoyat natijasida zarar yetkaziladigan yoki zarar yetkazish real xavfi ostida qoldiriladigan, inson sog'lig'ini muhofaza etadigan ijtimoiy munosabatlar;

– qiynashning asosiy bevosita obyekti shaxsning sog'lig'i, *qo'shimcha bevosita obyekti* esa shaxsning erkinligi va tana daxlsizligi, *fakultativ bevosita obyekti* shaxsning sha'ni va qadr-qimmatidir;

– jabrlanuvchining alohida belgilari jinoyatning asosiy tarkibi uchun ahamiyatsizdir, lekin jinoiy javobgarlikni differentsiya qilish va jazoni individuallashtirishda inobatga olinadi.

Dissertant qiynashning obyektiv tomonini tahlil etib, jinoyat tarkibining zaruriy obyektiv belgisi uning sodir etilish usuli ekanligini ta'kidlagan. Do'pposlash qiynashning sodir etilish usuli sifatida jabrlanuvchiga jismoniy azob berib yoki yengil tan jarohati (*sog'liqning qisqa muddatga buzilishiga olib kelgan kelmaganligidan qat'iy nazar*) yetkazgan holda kamida uch marta sodir etilishi lozim. Aybdor tomonidan jabrlanuvchining tana a'zolariga predmet yoki moslama orqali shikast yetkazganligi qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ishda do'pposlash qiynash tarkibining belgisi sifatida e'tirof etilishi uchun do'pposlashning muttasil bo'lganligi talab etilishi, muttasillik ikki: miqdor va sifat ko'rsatkichdan iborat bo'lib, sifat ko'rsatkichi do'pposlashning o'zaro aloqadorligi, aybdorning aynan bir jabrlanuvchi (jabrlanuvchilar)ga nisbatan xulqini ifodalovchi ketma-ketlikning o'zaro bog'liqligi, ichki tarafdin harakatlarining birligida namoyon bo'lishi, muttasillikning miqdor ko'rsatkichi do'pposlashning ikki marotaba sodir etilganligida namoyon bo'lishi, biroq, oxirgi uchinchi do'pposlash sodir etilganda birinchi do'pposlash bilan keyingi sodir etilgan do'pposlash orasida javobgarlikka tortish muddati o'tmagan bo'lishi lozimligi bayon etilgan.

Dissertant qiynash nafaqat faol harakat, balki harakatsizlik bilan masalan, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki

boshqa muassasalarning yosh bolaning tarbiyasi, sogʻligʻi uchun masʼul boʻlgan xodim tomonidan shaxsni uzoq vaqt ovqat, suv yoki issiqlikdan mahrum qilish kabi xoʻrlovchi harakatlar yoxud insonni sogʻligiga shikast yetkazuvchi sharoitga solish yoki unda qoldirish va hokazolar orqali sodir etish mumkinligini asoslab, JK 110-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasida koʻzda tutilgan “boshqacha harakatlar bilan qiynash” iborasini “boshqacha qilmishlar bilan qiynash” iborasiga almashtirish lozimligini ilgari surgan.

Muallifning fikricha, har qanday zoʻrlik xususiyatidagi harakat-qiynash jinoyatining tarkibini hosil qilmaydi. Bir marotaba badanga oʻtkir predmet, moslamani sanchish yoki chimchilash qiynash boʻlmaydi.

Tadqiqotchi jinoyat subyektini tahlil qilib, JK 110-moddasidagi jinoyatni sodir qilgan shaxsni ushbu modda bilan javobgarlikka tortish uchun u oʻzi sodir qilayotgan ijtimoiy xavfli qilmishi, (ijtimoiy xavfli harakati (harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfli ekanligi va mohiyatini anglagan va oʻz harakati yoki harakatsizligini boshqara olgan boʻlishi lozimligini, shaxsda aqli rasolikni istisno etmaydigan ruhiy buzilishlarning mavjudligi uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmasligini bayon etgan.

Muallif yuridik adabiyotlarda qiynash aybning qaysi shakli orqali sodir etilishi borasida turlicha fikrlar bildirilganligini inobatga olib, qiynash formal tarkibli jinoyat boʻlganligi va formal tarkibli jinoyatlarda shaxs oʻz qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatlarini anglab yetgan va shunday qilmishni sodir qilishni xohlagan boʻlsa, jinoyat toʻgʻri qasddan sodir etilgan deb topilishi sababli qiynash faqat toʻgʻri qasddan sodir etilishini asoslagan.

Ishda jinoyat huquqi doktrinasida uyqu va mastlik holatini ojiz ahvol qatoriga qoʻshish borasida bir qator munozaralar mavjudligi, tinchlantiruvchi vositalarni isteʼmol qilish natijasida kelib chiqqan yoki odatiy fiziologik uyqu holatida boʻlgan qiynash tarkibidan kelib chiqib, yaʼni muttasil ravishda doʻpposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynashni sodir etishni tasavvur etish murakkabligi sababli *uyquni* qiynash jinoyatining “ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan” (JK 110-moddasi ikkinchi qismining “v” bandi) kvalifikatsiyaviy belgilari qatoriga kiritish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblab, uni ojiz ahvol deb topmaslik lozimligini asoslagan.

Dissertant qiynashni oʻxshash tarkibli jinoyatlardan farqlash masalasiga toʻxtalib, jumladan oilaviy (maishiy) zoʻravonlik (126<sup>1</sup>-modda) uchun javobgarlik belgilangan normadan farqlash muhimligini, muttasil ravishda doʻpposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash xotini (eri), sobiq xotini (sobiq eri), bir roʻzgʻor asosida birgalikda yashayotgan shaxs (*muayyan xonadon yoki uyda er-xotinlik munosabatlarida yashovchi, umumiy mol-mulk va pul mablagʻlariga egalik qiluvchi erkak hamda ayol*)ga yoki umumiy farzandga ega boʻlgan shaxs (*oʻzaro munosabatlari natijasida farzandli boʻlgan erkak va ayol tushuniladi*)ga nisbatan sodir etilgan boʻlib, badanga ogʻir yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazilmagan boʻlsa, qilmish JK 110-moddasi tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi taʼkidlangan.

Muallif shaxsni milliy, irqiy, etnik, diniy adovat zamirida qiynash uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish lozimligini, JKning shaxsga qarshi jinoyatlar (JK 97,104,105,173,235-moddalar)da qilmishni mazkur motiv bilan sodir etish uchun javobgarlik alohida ogʻirlashtirilganligi, shuningdek Rossiya Federatsiyasi (JK 117-

modda), Qozog‘iston Respublikasi (JK 110-modda), Qirg‘iz Respublikasi (JK 138-modda), Armaniston Respublikasi (JK 119-modda) jinoyat kodekslarining qiynash uchun javobgarlik belgilangan normalarida qiynashni milliy, irqiy, etnik, diniy adovat zamirida” sodir etish kvalifikatsiyaviy belgi sifatida belgilanganligini ijobiy tajriba sifatida baholab, mazkur taklif sud va tergov organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa-so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning ko‘pchiligi (71 foiz) tomonidan ma’qullanganligini ta’kidlab, JK 110-moddasining 2-qismini “*milliy, irqiy, etnik, diniy adovat zamirida*” degan band bilan to‘ldirish lozimligi to‘g‘risidagi taklifni ilgari surgan.

Dissertant aybdorga moddiy yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan sodir etilgan qiynash uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish lozimligini, qiynash obyektiv jihatiga ko‘ra o‘xshash bo‘lgan JKning o‘zini-o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik belgilangan 103-moddasi 2-qismi “a” bandida moddiy yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan sodir etilganligi uchun javobgarlik og‘irlashtirilganligi, shuningdek Rossiya Federatsiyasi (JK 117-modda 2-qismi), Belarus Respublikasi (JK 154-modda 2-qismi) Qozog‘iston Respublikasi (JK 110-modda 2-qismi), Qirg‘iz Respublikasi (JK 138-modda 2-qismi), Armaniston Respublikasi (JK 119-modda 2-qismi) jinoyat kodekslarining qiynash uchun javobgarlik belgilangan normalarida qiynashni aybdorga moddiy yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan sodir etish kvalifikatsiyaviy belgi sifatida belgilanganligini ijobiy tajriba sifatida baholab, mazkur taklif sud va tergov organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa-so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning ko‘pchiligi (69 foiz) tomonidan ma’qullanganligini ta’kidlab, JK 110-moddasining 2-qismini “*moddiy yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram shaxsga nisbatan*” degan band bilan to‘ldirish lozimligini taklif etgan.

Dissertant JKda qilmishni ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilishi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanishi nuqtai nazaridan kelib chiqib, sud-tergov materiallarini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, qiynash aksariyat hollarda ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilishini inobatga olib, mazkur holat MDH davlatlarining deyarli barchasida javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanishini ko‘rsatib, JK 110-moddasi 2-qismini “*ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan*” degan band bilan to‘ldirish (*respondentlarning 86 % tomonidan ma’qullangan*) maqsadga muvofiqligini asoslagan.

Tadqiqotchi qiynashni “*xizmat vazifasini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan*”, “*g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda*”, “*bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib*”, “*jabrlanuvchini tarbiyalash, o‘qitish va (yoki) unga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlarini bajarayotgan shaxs tomonidan, shuningdek jabrlanuvchiga qarab turish majburiyatlari qonun bilan zimmasiga yuklatilgan ta’lim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan*” sodir etilishi uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish va JK 110-moddasi 2-qismini ushbu mazmundagi bandlar bilan to‘ldirish zarurligini asoslagan.

Dissertatsiyaning “Qiynashning kriminologik jihatlari” deb nomlangan uchinchi bobida qiynashni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi, qiynashning sabablari va

unga imkon bergan shart-sharoitlar, qiynashning oldini olish choralariga doir taklif, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muallif qiynashni sodir etgan shaxsga kriminologik tavsifi berish uchun uni sodir etgan shaxslarning ijtimoiy maqomi, kasb-korini o'rganish, shaxsni to'liqroq tavsiflash, unga xos bo'lgan jihatlarni aniqlash, konfliktlarni zo'rlik ishlatish yo'li bilan hal qilish va jabrlanuvchilarni qiynashga, ayniqsa, moyil bo'lganlarni aniqlash imkonini berishini asoslagan.

Tadqiqotchi jinoyatchi shaxsining kriminologik tavsifiga oid ma'lumotlarni sud hukmlari bo'yicha tahlil qilib, o'ta kriminogen guruhni katta yoshdagilar (30–49 yosh) 75,0%, keyingi o'rinda yoshlar (18–30 yosh) 21,0%, 50 yoshga to'lganlar va undan kattalar esa 4,0 % ekanligi, 18 yoshgacha bo'lganlar tomonidan qiynash umuman sodir etilmaganligi, bu hol qisman turmush sharoitlarining jadal o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, ularga yosh avlod o'rta va yetuk yoshdagi kishilarga qaraganda osonroq moslashadi, deb hisoblagan.

Izlanuvchining fikricha, jinoyat ishlari materiallarida aybdorlarga berilgan tavsifnomalar ham diqqatga sazovordir, mazkur qilmishni sodir etganlarning 35,56 % yashash joyi bo'yicha salbiy tavsiflangan, 15,50 % ijobiy tavsiflangan, 3,64 % aniq tavsiflanmagan, jazoga hukm qilinganlarning 46,2% yashash joyidan ham, ish joyidan ham tavsifnomalarga ega bo'lmagan, biroq, mahkumlarning ko'pchiligi yashash joyi bo'yicha salbiy tavsiflangan, ammo ularning ish joyidan berilgan tavsifnomalarda boshqacha vaziyatga duch kelingan, ya'ni ularda jinoyatchilarning 33,13 % ijobiy tavsiflangan, 10,94% salbiy tavsiflangan, jinoyat ishlarining 52,89 % tavsifnomalar bo'lmagan.

Tavsifnomalarning yo'qligi, aksariyat mahkumlarning qiynashni sodir etgan paytida hech qayerda ishlamaganligi, ijobiy tavsifnomalar sonini kamligi, jinoyat ishlarining ko'pchiligida ular avvalgi ish joyidan, aksariyat hollarda ular 3 yildan 5 yilgacha va undan ko'proq muddat mehnat qilgan ish joylaridan berilganligi bilan izohlangan.

Qiynash uchun jazoga hukm qilinganlarning 90,6 % hech qayerda ishlamaydigan va malaka talab etmaydigan mehnat bilan band bo'lgan ishchilar tashkil etgan. Kasbiy tayyorgarligi, ma'lumoti va (yoki) daromadlari darajasi ijtimoiy zinapoyada pastda bo'lgan kishilar o'zining agressiv xulq-atvorini mazkur zinapoyaning yuqori pillapoyalaridagi odamlarga qaraganda ko'proq namoyish etgan, ushbu jinoyatni asosan erkaklar sodir etgan.

Jinoyat ishlarini o'rganish jinoyat sodir etganlarning 62,5 % o'rta, 25,0 % o'rta maxsus hamda 12,5%ni oliy ma'lumotlilar tashkil qilganligini ko'rsatgan. Bu ma'lumotlar shaxsning ma'lumoti darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning kriminogen potentsiali shuncha past bo'lishini tasdiqlaydi.

Qiynash uchun jazoga hukm qilinganlarning 78,1 % oilalilar, 21,9 %ni oila qurmaganlar, 34,8 %ni nikohdan ajralganlar tashkil qilgan. Oila qurib nikohdan ajralgan, biroq shariy nikohdagilar eng ko'p 49,9 % bo'lgan. Jinoyatchi bilan jabrlanuvchining aloqadorlik darajasi tahlil etilganida, jinoyat ishlarining 84,4 %ida qiynash nikohda bo'lgan turmush o'rtog'iga, 46,9 % shariy nikohda bo'lgan turmush o'rtog'iga, 3,1 % ajrashgan va birga yashamaydigan turmush o'rtog'iga nisbatan sodir etilgan. Jinoyat ishlarining 15,6 %da voyaga yetmagan o'gay qiziga nisbatan



sodir etilganligi qiynash uchun aynan oila eng “xavfli hudud” ekanligidan dalolat beradi. Tadqiqotchi qiynash bilan bog‘liq eng xavfli, fojiali faktlar aynan oilada sodir etilishi, ba‘zan ular keyinchalik badanga og‘ir shikast yetkazish va hatto odam o‘ldirish bilan tugaydi deb hisoblaydi.

Dissertant qiynash uchun jazoga hukm qilinganlarning 87,5 % erkaklar bo‘lib, ular jabrlanuvchilarning erlari, jazmanlari, otalari bo‘lganligini, bu ko‘rsatkichlar shaxsning fiziologik xususiyatlari bilan bog‘liqligini, chunki erkaklar konfliktni zo‘rluk ishlatib hal qilishga ayollarga qaraganda ko‘proq moyil ekanligini ko‘rsatib, jabrlanganlarning asosiy qismi xotin-qizlar va bolalar ekanligini inobatga olib, qiynashdan, xususan zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderi berishni kechiktirmaslik va tizimli tashkil etish lozimligini ta‘kidlagan.

Qiynashning asosiy sabab (omil)lari qatoriga alkogolizmni kiritish lozim, aynan alkogol iste‘mol qilish zo‘rluk ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning asosiy sabablaridan hisoblanib jazoga hukm qilinganlarning 92,42 % jinoyatni sodir etish vaqtida mast bo‘lganligi, biroq jinoyat tafsilotlarini eslashini ko‘rsatgan, 6,68 % da aybdorning alkogol iste‘mol qilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar yo‘q, 0,9%da aybdorlar alkogol iste‘mol qilmagan. Yuqoridagilar asosida alkogol jismoniy agressiyani ifodalashga imkoniyat yaratuvchi omil sifatida qaralishi mumkin.

O‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra respondentlar zo‘rluk ishlatib jinoyat sodir etgan hamda jabrlanuvchini qiynaganlarni quyidagicha tasniflagan: vaziyatga bog‘liq jinoyatchilar (respondentlarning 10,94%); konfliktga moyil jinoyatchilar (26,44%), salbiy mo‘ljalli jinoyatchilar (43,16%); ashaddiy jinoyatchilar (19,45%). Jinoyatchilarning bunday tasniflanishi qonunni qo‘llash amaliyotida va zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif ishda qiynashning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarini tahlil qilib, tuman, shahar IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi boshliqlari va profilaktika (katta) inspektorlari hamda sudyalari, ilmiy xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga tayanib, quyidagi kriminogen omillarni ajratish kerakligini ta‘kidlaydi: an’anaviy qadriyatlar va axloqiy prinsiplarning tubdan qayta ko‘rilishi (78,3%); inson sha‘ni, qadr-qimmatini va salomatligining qadrsizlanishi (60,4%); oila-maishiy sohada yuzaga keluvchi konfliktlarni, ayollarga nisbatan zo‘rluk ishlatish yo‘li bilan hal qilish mumkinligi (va hatto maqsadga muvofiqligi)ning ommaviy ong darajasida e‘tirof etilishi (43,5%); aholi ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishining kuchayishi natijasida jamiyatda ijtimoiy kelishmovchilik ko‘lami va darajasining oshishi (80,2%); qashshoqlik darajasining o‘sishi, zo‘rluk ishlatish va qiynashga moyil shaxslarning ko‘pchiligi doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmaganlar toifasiga mansubligi, ular shaxsiy istiqbollarni yo‘qotishi, agressiyaga da‘vat etuvchi doimiy tashvish va chorasizlik (70,3%); agressiya va zo‘rluk ishlatish bilan bog‘liq eksesslarning qulay ta’sir ko‘rsatuvchi aholining alkogollashuvi jarayonlari (77,4%); oila-maishiy sohadagi antiijtimoiy qilmishlarga tegishli mansabdor shaxslar va jamoat tashkilotlarining e‘tiborsizligi, shu jumladan zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish, urib-do‘pposlash, azoblash hollariga loqaydlik (71,1%); zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar, shu jumladan qiynashlar aksariyat qismining latentligi va aybdorlarining jazolanmay qolishi (90,3%); ijtimoiy-

kriminologik profilaktika subyektlari faoliyatidagi kamchiliklar (36,4%) asosiy sabablardan ekanligi ta'kidlangan. Qiynashni sodir etgan shaxsni tadqiq etish natijalari ilmiy nuqtai nazardan diqqatga sazovor va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan profilaktika faoliyatini rejalashtirishda hamda ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktika tadbirlarini o'tkazishda hisobga olinishi lozim.

